



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

6-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº S/6 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy

kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari" elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Norov Shukrat Suvonovich</i>	
ФОРМИРОВАНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЫХ ЛЮДЕЙ ПРИ УЧАСТИИ МОЛОДЁЖНЫХ ОРГАНИЗАЦИИ	8-13
<i>Jo'raqulov Boburmirzo, Masidikov Elyor</i>	
TUNKAT YODGORLIGIDAN TOPILGAN O'RSTA ASRLAR OILAVIY HAMMOMI	14-19
<i>Allaberganova Ro'zgul</i>	
MUSTAQILLIK YILLARIDA URGANCH SHAHRI QIYOFASINING O'ZGARISHI	20-23

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Dr. Abror Kucharov and Dr. Jyoti Meshram</i>	
INFRASTRUCTURE DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN: A CATALYST FOR INDIAN INVESTMENT	24-38
<i>Raximbayev Akmal Azatboyevich</i>	
HUDUDLARDA SANOAT AGLOMERATSIYALARINI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI VA IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRINI BAHOLASH	39-46
<i>Mamajonova Nodiraxon Alisher qizi</i>	
QURILISH KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI	47-57
<i>Xasanova Dildora O'ktam qizi</i>	
QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIGA IXTISOSLASHGAN XO'JALIK VA KORXONALAR FAOLIYATIDA ISHLAB CHIQARISH	58-71

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Abdusattarova Sitora</i>	
ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА СОЦИУМ: ФИЛОСОФСКО-ПРАВОВОЕ ОСМЫСЛЕНИЕ	72-78
<i>Kubatov Shahobjon</i>	
UYG'UNLIK G'OYASI VA IJTIMOIY DAVLAT HAQIDAGI TA'LIMOTLARNI SINTEZ QILISH MASALALARI	79-88
<i>Uralov Dilshodbek</i>	
ON HUMAN MORALITY AND PROFESSIONAL CULTURE IN THE ETHICAL VIEWS OF IBN SINO	89-93
<i>Tagaev Kamol</i>	
YANGI O'ZBEKISTONDA RAHBARLARNI SHAKLLANTIRISHDA IJTIMOIY LOYIHALARNING STRATEGIK AHAMIYATI	94-99
<i>Xaydarova Zebiniso Nusratullayevna</i>	
EMPIRIZM, RATSIONALIZM VA KONSTRUKTIVIZM KABI TURLI EPISTEMOLOGIK NAZARIYALarda INSON MAVJUDLIGI MASALALARI	100-106
<i>Mamadiyarova Malika</i>	
OILAVIY QADRIYATLARNING METODOLOGIK VA NAZARIY ASOSLARI	107-111
<i>Xolova Umida Umedovna</i>	
MA'RIFAT VA MA'NAVİYAT UYG'UNLIGINING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI: TARIXIY-FALSAFIY TAHLIL	112-118

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Baxramova Dilovarxon Gazanfarovna</i>	
O'ZBEK VA ISPAN TILLARIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI.....	119-122

<i>Qozoqboyeva Dilfuzaxon Ilxomjon qizi</i>	
GENDER STEREOTYPES OF SPEECH OF UZBEK CHILDREN	123-128
<i>Pulatjonova Muxtar</i>	
POLITENESS STRATEGIES IN ENGLISH AND UZBEK: A PRAGMATIC AND CROSS-CULTURAL COMPARISON	129-132
<i>Chernova Natalya Vasiliyevna</i>	
RUS BOLALARNING NUTIQDA GENDERGA OID BELGILARNI SHAKLLANISHNING LINGVISTIK MEXANIZMLARI	133-136
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Komilov Avazbek</i>	
PROKURATURA ORGANLARI TOMONIDAN PROKUROR HUQUQIY VOSITALARINI QO'LLASH BO'YICHA XORIJY MAMLAKTALAR TAJRIBASI.....	137-146
<i>Rasulov Jurabek Abdusamiyevich</i>	
XALQARO HUQUQ INQIROZI: ZO'RQISH OSTIDAGI TIZIM	147-152
<i>Nishonov Abdulloh</i>	
ATOM ENERGIYASIDAN FOYDALANISH JARAYONIDA OBYEKTLARNI JOYLASHTIRISHDA XALQARO EKOLOGIK NORMALARNING HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNING MILLIY QONUNCHILIKKA INTEGRATSİYASI.....	153-159
<i>Yusupjanova Gulnoza Ilxomovna</i>	
JINOYAT PROTSESSIDA SUDNING FUNKSIYASI	160-167
<i>Tursoatov Sodiq Xudoyor o'g'li</i>	
YUKSAK XIZMAT KO'RSATISH TUSHUNCHASI VA UNING O'ZBEKİSTON QONUNCHILIGIDA IFODALANISHI MASALALARI.....	168-174
<i>Mamadaliyev Boburjon Bahodirjon o'g'li</i>	
MAHALLIY BUDJETNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNING ILMIY-NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI	175-179
<i>Парахатова Шахноза Ерназаровна</i>	
ОБРАЗЦЫ ДЛЯ ЭКСПЕРТНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ: ПОНЯТИЕ И ПРАВОВАЯ СУЩНОСТЬ	180-193
<i>Узбекова Дильтюдода Тулкиновна</i>	
КЛАССИФИКАЦИЯ МЕР ПРОЦЕССУАЛЬНОГО ПРИНУЖДЕНИЯ	194-202
<i>Norboyev Bobur</i>	
LEGAL FRAMEWORKS FOR DIGITAL TECHNOLOGY APPLICATION IN LAND CADASTRE: INTERNATIONAL EXPERIENCES AND PRACTICES IN UZBEKISTAN	203-211
<i>Gafurova Shoira Baxodirovna</i>	
XALQARO JINOYAT HUQUQIDA DALILLAR INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI	212-216
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Erkaboyev Oybek Muxammadjonovich</i>	
HARBIY XIZMATGA TAYYORGARLIK BOSQICHIDA O'QUVCHILARNING JISMONIY SALOHİYATINI SHAKLLANTIRISHDA INTEGRATSİYALASHGAN YONDASHUVLAR: JISMONIY TARBIYA VA CHAQIRUVGA QADAR TAYYORGARLIK ASOSIDA.....	217-221
<i>Kamalova Dilnavoz, Shomurodova Shahzoda</i>	
KINEMATİKADAN OLIMPIADA MASALALARİ: KINEMATİK MASALALARDA YUQORI DARAJALI YECHIM YONDASHUVLARI	222-227

Received: 5 July 2025

Accepted: 20 July 2025

Published: 30 July 2025

Article / Original Paper

COURT FUNCTIONS IN CRIMINAL PROCEEDINGS

Yusupdzhanova Gulnoza Ilxomovna,

Lecturer of TSUL

E-mail: gulnozayusupjanova1@gmail.com

Abstract. This article is devoted to the scientific-theoretical and practical study of the multifaceted functions of the court in criminal proceedings. It presents a systematic classification of judicial functions stemming from the main objectives of criminal procedure legislation. The article elucidates the court's role in administering justice through substantive resolution of criminal cases, its supervisory powers during the preliminary investigation and pre-trial stages, and its significance in protecting citizens' constitutional rights and freedoms and restoring violated rights. Additionally, the court's role in ensuring legality and preventing offenses is comprehensively analyzed.

Keywords: court functions, criminal procedure law, justice, judicial supervision, law enforcement activity, restoration of rights, protection of rights, crime prevention, Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan.

JINOYAT PROTSESSIDA SUDNING FUNKSIYASI

Yusupdjanova Gulnoza Ilxomovna,

TDYU Jinoyat protsessual-huquqi

kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola jinoyat protsessida sudning ko'p qirrali funksiyalarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan o'rGANISHGA qaratilgan. Unda jinoyat-protsessual qonunchiligining asosiy vazifalaridan kelib chiqadigan sud funksiyalarining tizimli tasnifi taqdim etilgan. Maqolada sudning jinoyat ishini mazmunan hal etish orqali adolatni amalga oshirishdagi roli, dastlabki tergov va sudga qadar ish yurituvdag'i nazorat vakolatlari, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda buzilgan huquqlarni tiklashdagi ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, sudning huquqni ta'minlash va huquqbazarliklarning oldini olishdagi o'rni atroficha tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: sud funksiyalari, jinoyat-protsessual huquqi, odil sudlov, sud nazorati, huquqni muhofaza qilish, huquqni tiklash, huquqni ta'minlash, huquqbazarlikning oldini olish, O'zbekiston Respublikasi JPK.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI6Y2025N22>

Kirish.

Jinoyat qonuni bilan muhofaza qilinadigan ijtimoiy munosabatlarning buzilishi jinoyat hisoblanadi va bunday qilmishlar uchun qonunda jinoiy jazo belgilangan. Jinoyat sodir etganlik uchun jinoiy ta'qib jinoyat-protsessual qonun normalari bilan tartibga solinadigan jinoiy sud ishlarini yuritish doirasida amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 2-moddasiga ko'ra, Jinoyat-protsessual qonunchiligining vazifalari quyidagilardan iborat: jinoyatlarni tez va to'la ochish, jinoyat sodir etgan har bir shaxsgaadolatli jazo berilishi hamda aybi bo'limgan hech bir shaxs javobgarlikka tortilmasligi va hukm qilinmasligi uchun aybdorlarni fosh etishdan hamda qonunning to'g'ri tatbiq etilishini ta'minlashdan iboratdir.

Jinoyat ishlarini yuritishning jinoyat-protsessual qonunchilikda belgilangan tartibi qonuniylikni mustahkamlashga, jinoyatlarning oldini olishga, shaxs, davlat va jamiyat manfaatlarini himoya etishga yordam qilmog'i lozim.

Huquq nazariyasida to'rtta funksiyalar guruhi (tizimi) ajratiladi, ular birgalikda huquq funksiyalari tizimini tashkil etadi. Bular umumhuquqiy funksiyalar, tarmoq funksiyalari, huquqiy institutlar funksiyalari va huquq normalari funksiyalaridir. Shu munosabat bilan, jinoyat-protsessual funksiyalarni jinoyat-protsessual huquq sohasiga xos bo'lgan huquq tarmog'i funksiyalari (tarmoq funksiyalar) sifatida qarash mumkin. Funksiyalar huquqiy ta'sirning maqsadi va yo'nalishi deb hisoblanishi asosida, jinoyat-protsessual funksiyalar umumhuquqiy funksiyalarni — tartibga solish va himoya qilish funksiyalarini amalgaloshirishning o'ziga xos shaklini ifodalaydi.

Material va metodlar.

Ushbu maqola jinoyat protsessida sudning ko'p qirrali funksiyalarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan o'rganishga qaratilgan. Maqolada sudning jinoyat ishini mazmunan hal etish orqali adolatni amalga oshirishdagi roli, dastlabki tergov va sudga qadar ish yurituvdag'i nazorat vakolatlari, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda buzilgan huquqlarni tiklashdagi ahamiyati ochib berilgan, sohaga oid ilmiy tushunchalar, nazariyotchi olimlarning qarashlari, xulosa va fikrlari o'rganilgan.

Shuningdek, jinoyat protsessiga oid qonun hujjalardagi ayrim normalar tahlil qilingan. Maqola mavzuga oid asosiy tushunchalarni o'rganishdan boshlangan, ushbu tushunchalarni rivojlantirish bilan davom ettirilgan, hamda mavjud mexanizmlarni takomillashtirish, muammolarni hal qilish yo'llarini ko'rsatishga oid xulosalarga kelish bilan yakunlangan. Ushu xulosalarning amalga oshishi respublikada olib borilayotgan sud-huquq islohotlarining barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Muhokama.

Jinoyat huquqi normalari faqat jinoiy sud ishlarini yuritish doirasida amalga oshirilishi mumkin, uning asosiy maqsadi va vazifasi ham shundan iborat. Jinoiy sud ishlarini yuritishdagi funksiya masalalari nazariy jihatdan bahsli hisoblanadi. Bugungi kunda funksiya tushunchasining umume'tirof etilgan ta'rifi ishlab chiqilmagan. "Funksiya" atamasi birinchi marta Jinoyat-protsessual kodeksining 2-bobi "Jinoyat protsessi prinsiplari"dagi 25-moddasi "Sudda ishlarni yuritishda tortishuv"da qo'llanilgan. Bu shuni anglatadiki, "taraflarning tortishuvi" jinoiy sud ishlarini yuritishning prinsipi hisoblanadi. JPKning 25-moddasi quyidagilarni belgilaydi: 1. Jinoiy sud ishlarini yuritish taraflarning tortishuvi asosida amalga oshiriladi. 2. Aylov, himoya va jinoyat ishini hal etish vazifalari bir-biridan ajratilgan bo'lib, ular aynan bir organ yoki mansabdor shaxs zimmasiga yuklatilishi mumkin emas. 3. Sud jinoiy ta'qib organi hisoblanmaydi, aylov yoki himoya tomonida turmaydi. Sud taraflarga o'z protsessual majburiyatlarini bajarish va ularga berilgan huquqlarni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib beradi.

S.P. Yefimichev va P.S. Yefimichevlarning fikricha, jinoyat-protsessual funksiyalar — bu "huquq normalari bilan belgilanadigan, jinoyat sudlov ishlarini yuritishning maqsadini bevosita ochib beradigan, jinoyat protsessi oldida turgan vazifalarni hal etishga yo'naltirilgan, jarayon ishtirokchilarining faoliyat yo'nalishlarini aniqlaydigan va ularning huquqiy maqomiga bog'liq bo'lgan yo'nalishlardir" [1].

Girkoning fikricha, “jinoyat-protsessual funksiyalarni jinoyat sudlovining maqsadi bilan bevosita bog’liq va uning vazifalarini hal etishga yo’naltirilgan protsess ishtirokchilarining faoliyat yo’nalishlari sifatida tushunish mumkin, ularning mazmuni subyektlarning maxsus vakolatlari, huquq va majburiyatlar (protsessual maqomi) bilan belgilanadi.” Bundan tashqari, Girko ularni quyidagicha tasniflaydi: 1) asosiy, 2) jinoyat sudlovining normal kechishini ta’minlovchi, 3) yordamchi funksiyalar [2].

Jinoiy sud ishlarini yuritish funksiyasi tushunchasining ko’plab talqinlari mavjudligi bu institutning sud faoliyatidagi muhim ahamiyatini ko’rsatadi. Tushunchalarni tahlil qilganda, jinoyat-protsessual funksiyalarning asosiy belgisini aniqlash mumkin, u jinoiy sud ishlarini yuritish ishtirokchilarining o’z rollariga muvofiq faoliyatining muayyan yo’nalishi bilan bog’liq. “Har bir ishtirokchining faoliyati o’ziga xos maqsadga ega, bunda jinoyat protsessining ayni bir ishtirokchisi turli jinoyat-protsessual funksiyalarni bajarishga hissa qo’shishi mumkin,” — deb yozadi 3.3. Zinatullin [3].

Jinoyat protsessi nazariyasida quyidagi asosiy jinoyat-protsessual funksiyalar ajratib ko’rsatiladi: tergov va prokuratura organlari faoliyati bilan bog’liq bo’lgan ayblov funksiyasi; gumon qilinuvchi (ayblanuvchi, sudlanuvchi) va uning himoyachisi faoliyati bilan bog’liq bo’lgan himoya funksiyasi; sud vakolati bilan bog’liq bo’lgan jinoyat ishini sud tomonidan ko’rib chiqish va hal etish funksiyasi [3].

Sudning asosiy faoliyat yo’nalishi (sud vazifasi) nimadan iborat? Bu savolga javob berish uchun, avvalo, keng qamrovli tushuncha — sud hokimiyatiga murojaat qilish lozim. Uning vazifalari va shakllari qanday? Konstitutsiyaviy darajada davlat hokimiyati tizimida faoliyat subyekti sifatida alohida jinoyat sudi emas, balki butun sud hokimiyati organlari tizimi namoyon bo’ladi. Sud hokimiyatining asosiy vazifasi odil sudlovni amalga oshirish orqali huquqni himoya qilishdir (huquqni himoya qilish funksiyasi). Bu vazifa sud hokimiyatini amalga oshirishning bosh yo’nalishini, uning ijtimoiy roli va maqsadini aks ettiradi.

Odil sudlovning muayyan shakli bo’lmish jinoiy sud ish yurituvida, shuni ko’ramizki, bu bosqichda sud oldiga sud hokimiyati uchun umumiy bo’lgan vazifalar emas, balki jinoyat protsessining umumiy maqsadidan kelib chiqadigan va sud faoliyatining yo’nalishlarini belgilaydigan vazifalar qo’yladi. Shu bilan birga, jinoyat sudi o’zining protsessual faoliyatida o’ziga xos xususiyatlarga ega bo’lgan aniq vakolatlar bilan ta’milanadi.

Hukm chiqarishdan oldin sud Jinoyat-protsessual kodeksining 457-moddasi 1-qismida belgilangan bir qator masalalarni hal qilishi lozim: hukm chiqarishda sud maslahatxonada quyidagi masalalarni hal qiladi: sudlanuvchi ayblanayotgan qilmish haqiqatan sodir etilganmi; bu qilmish jinoyat hisoblanadimi va u Jinoyat moddasida nazarda tutilgan; bu qilmishni sudlanuvchi sodir etganmi; sudlanuvchi jinoyat sodir etilishida ayblimi va, basharti aybli bo’lsa, uning aybi qanday shaklda; sudlanuvchining javobgarligini yengillashtiradigan va og’irlashtiradigan holatlar bormi; sudlanuvchi sodir etgan jinoyati uchun jazolanishi kerakmi; sudlanuvchiga qanday jazo tayinlanishi lozim va u shu jazoni o’tashi kerakmi va hokazo. Protsessualist olim A.S. Vasilevaning fikricha, “ushbu masalalarni hal qilishda, hukm chiqarish jarayonida sud jinoyat-protsessual funksiyani — jinoyat ishini mazmunan hal etishni amalga oshiradi, uning asosiy vazifasi ham aynan shundan iborat”[4].

“Jinoyat ishini sudda ko’rib chiqish va hal qilish funksiyasi” hamda “odil sudlov funksiyasi” tushunchalarining o’zaro nisbatini aniqlash lozim.

Motovilovker “odil sudlov funksiyasi” iborasini “ishni hal qilish funksiyasi” iborasiga qaraganda kengroq ma’no beradi deb hisoblaydi. Buning sababi shundaki, u sudning ikki muhim jihatini aks ettirmaydi: birinchidan, sud ishni shunchaki hal etmay, balki uni har tomonlama va xolisona o’rganadi; ikkinchidan, aybsizlik haqidagi qarorni tergov ham berishi mumkin, ammo jinoyatda aybdor deb topish va jazo tayinlash faqat sud hukmi asosida amalgalashiriladi [5].

Fikrimizcha, bunday tenglashtirish faqatgina sud jinoyat ishini ko’rib chiqib, ayblov yoki oqlov hukmini chiqarganida ma’lum darajada qabul qilinishi mumkin. Chunki aynan shu hukm bilan jinoyat sudloving asosiy savoliga javob beriladi: sudlanuvchi aybdormi (yoki aybsizmi) va unga jinoiy jazo qo’llash kerakmi (yoki yo’qmi)? Jinoyat ishini mazmunan mana shunday hal qilish, aslida, muayyan jinoyat ishi bo'yicha odil sudlovni amalgalashirishning o’zginasidir. Shuni ta’kidlash joizki, jinoiy sud ishlarida “odil sudlov funksiyasi” atamasini qo’llash ma’qulroq, chunki u sudning muayyan jinoyat ishi bo'yicha faoliyati yakuniy adolatli qaror chiqarish bilan yakunlanishini ko’rsatadi. Bu qaror hukm yoki qaror (ajrim) ko’rinishida bo’lishi mumkin.

Skitovichning ta’kidlashicha, sud hokimiyati nafaqat odil sudlovni amalgalashiradi, balki sud nazoratini olib borish, sudyalar korpusini shakllantirish va sud amaliyatiga rahbarlik qilish kabi muhim vazifalarni ham bajaradi [6]. Kolokolov esa jinoyat protsessida prokuror va tergov organlarining shaxsning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini cheklovchi tergov harakatlari hamda qarorlarining qonuniyligi ustidan sud nazoratini amalgalashirishni sudning maxsus vazifasi sifatida ta’kidlaydi [7].

Agar funksiya ishtirokchining asosiy faoliyat yo’nalishi ekanligidan kelib chiqsak, jinoyat-protsessual munosabatlarda aynan odil sudlovni amalgalashirish funksiyasi sudning yagona vazifasi hisoblanadi.

Sud nazorati esa, N.A. Kolokolov ta’kidlaganidek, sudning faoliyat turi bo’lib, odil sudlovga nisbatan yordamchi xususiyatga ega. “Sud nazorati, — deb yozadi u, — odil sudlovni amalgalashirish uchun eng maqbul shart-sharoitlarni ta’minalashga qaratilgan”dir [7].

Hozirda zamonaviy jinoyat protsessida sud quyidagi funksiyalarini bajaradi:

- ishni hal qilish funksiyasi;
- nazorat funksiyasi;
- qonun muhofazasi funksiyasi;
- huquqni tiklash funksiyasi;
- huquqni ta’minalash funksiyasi;
- huquq buzilishining oldini olish funksiyasi.

Ishni hal qilish funksiyasi sudning asosiy funksiyasi bo’lib, yuqorida sanab o’tilgan funksiyalar muayyan bir jinoyat ishi yuzasidan ishni hal qilish davomida vujudga keladi. Lekin nazorat funksiyasi hozirgi kunda ko’plab olimlar tomonidan sudning mustaqil funksiyasi deb ta’kidlanmoqda. Sudning nazorat funksiyasi, ya’ni sud nazorati, uning jinoyat protsessual faoliyatining tekshirishga oid xususiyati bilan ifodalanadi.

Nazorat (tekshirish, tekshirish maqsadida kuzatish) funksiyasi sud tomonidan jinoyat jarayonining barcha bosqichida amalgalashirilib, sudning qonuniy kuchga kirmagan qarorlari (hukmlari), xamda davlat organlarining protsessual harakatlari va qarorlarining qonuniyligini hamda asosliliginini tekshirish bilan ifodalanadi.

Jinoyat protsessida sud nazoratining quyidagi turlari mavjud:

1. dastlabki tergovdagi sud nazorati;
2. jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayinlashdagi sud nazorati;
3. hukm, ajrim va qarorlarning qonuniyligi, asosliligi va adolatlilikini tekshirishdagi sud nazorati.

Z.F.Inog'omjonovaning ta'kidlashicha, sud nazorati – jinoyat protsessining deyarli barcha bosqichlarida amalda bo'ladigan, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini muhofaza qilishga qaratilgan, qarorlar, harakat va harakatsizlik hamda dastlabki tergov va sud qarorlarining (kuchga kirgan kirmaganligidan qat'i nazar) qonuniyligi, asosliligi va adolatlilikini kafolatlashga xizmat qiladigan faoliyat sifatida e'tirof etilgandagina uning huquqiy tabiatи oydinlashadi[8].

N.A.Kolokolov, "sud nazorati funksiyasi faqat dastlabki tergovga taalluqli, ya'ni faqat shu bosqichga xos"[7], deydi. Z.F.Inog'omjonova yuqoridagi fikrlarni rad etib, sud nazorati dastlabki tergovdan tashqari jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayinlash hamda hukm, ajrim va qarorlarning qonuniyligini, asosliligi va adolatlilikini tekshirish bosqichida ham amalda bo'ladi deya ta'kidlaydi [8]. Ximichevaning fikricha, sud nazorati jinoyat ishini qo'zg'atishda va dastlabki tergovda sud hokimiyatining faoliyat yo'naliishi hisoblanadi. Shuning uchun ham uni jinoyat protsessining funksiyasi deb aytish mumkin. Unda sud tekshirish, ogohlantirish va huquqni tiklash tizimini o'z ichiga olib, dastlabki tergov organlarining shaxsning huquq va erkinliklarini cheklashga oid qaror va harakatlarining qonuniy va asoslantirilgan bo'lishligini ta'minlashga xizmat qiladi [9].

Yuqoridagilar asosida sudning nazorat funksiyasi o'z mohiyati va faoliyat doirasiga ko'ra sudning huquqni muhofaza qiluvchi hamda huquqni tiklovchi funksiyasidan farq qilib, o'zining mustaqil mazmun va mohiyatiga ega degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Qonun muhofazasi funksiyasi negizida jinoyat sud yurituviga jalg qilingan har bir shaxsning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ta'minlash yotadi.

Jinoyat ishini ko'rib chiqayotganda sudning asosiy vazifasi bo'lib sudlanuvchining aybdorligi masalasini to'g'ri hal qilish (unga qo'yilayotgan ayblovning asosliligi) hisoblanadi. Bu o'z navbatida, suddan taqdim etilgan dalillarning ishga yo'l qo'yilishi masalasi yuzasidan ularni o'rganish hamda ularga baho berishni talab etadi. Bu faoliyatning negizida dastlabki tergov organlarining dalillarni yig'ish tartibiga amal qilganligi yoki qilmaganligi, ya'ni o'rganilayotgan dalillarni tergov va boshqa protsessual harakatlar natijasida yig'ishda ular qanchalik jinoyat protsessual qonunchiligiga rioya qilganliklarini sud tomonidan majburiy tekshirilishi yotadi. Har qanday sud ishida sud u yoki bu ko'rinishda fuqarolarning subyektiv huquqlarini noqonuniy va asoslantirilmagan holda cheklab qo'yilishidan himoya etadi.

Sudning huquqni tiklash funksiyasi asosan ishni sudda ko'rishga tayyorlash davomida sudning prokuror, tergovchi, surishtiruv organlari va surishtiruvchining harakati (harakatsizligi) hamda ularning chiqargan qarorlari ustidan keltirilgan shikoyatlarni ko'rish vakolati asosida bu turdagи ishlarni ko'rib chiqishi bilan bog'liq.

Biz bu yerda yana sudda ishni ko'rib chiqishning predmeti bo'lib huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlanishi masalasi hisoblanishini ko'rishimiz mumkin. Bu turdagи shikoyatlar ko'rib chiqilayotgan sud yurituvining maqsadi fuqaroning huquqni muhofaza etuvchi organlar va mansabdor shaxslar tomonidan poymol etilib bo'lgan huquq va erkinliklarini tiklashdan iborat.

Buzilgan huquqni tiklashga qaratilgan sud ishi faqatgina manfaatdor shaxsning buzilgan huquqni tiklash yoki huquqni amalgaga oshirish uchun qo'yilgan to'siqni olib tashlashni so'rab sudga qilgan murojaati (iltimosnomasi) asosidagina qo'zg'atiladi.

Huquqni tiklash maqsadi manfaatdor shaxsning murojaati asosida ko'rib chiqilayotgan boshqa ko'pgina sud yuritivi va jarayonlarida ham ko'zlanadi va erishiladi (masalan, xususiy ayblov ishi bo'yicha ariza, jinoyat sodir etish natijasida yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararni qoplash to'g'risidagi fuqarolik da'vosi, noqonuniy sud qarori yuzasidan appelyatsiya va kassatsiya shikoyati, oqlangan shaxsning mulkiy zararni qoplab berish to'g'risidagi talabi).

Huquqni ta'minlash funksiyasi sudning nafaqat ishni ko'rib chiqish va hal qilish, shaxsning huquq va manfaatlarini himoya qilish va tiklash jarayonidan, balki sudda ishni ko'rish uchun obyektiv shart-sharoitlarni yaratish, sudning qonuniy vaadolatli qaror chiqarishini ta'minlashdan kelib chiqadi.

Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi Yevropa Konvensiyasining 6-moddasi har bir insonningadolatli sud muhokamasiga bo'lgan huquqini tantanali ravishda e'lon qildi. Konvensiya asosida bu tushuncha o'z ichiga shaxsning odil sudlovga bo'lgan huquqini, tomonlar tengligi va tortishuvga asoslangan sud jarayonini olgan bo'lib, unga ko'ra, sud jarayonida aynan sudya sud ishini unda ishtirok etayotgan barcha tomonlar uchun, ularga Konvensiyada berilgan huquqlar asosidaadolatli bo'lishini ta'minlashi kerakligi ta'kidlanadi.

Milliy qonunchilikka ko'ra ham sudlarga bir qancha "ta'minlovchi" majburiyatlar yuklatilgan.

Masalan bular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- sudlanuvchiga JPK 46-moddasiga binoan huquqlarini tushuntirib berish va ularga qonun doirasidagi barcha usul va vositalar yordamida himoyalanishni ta'minlash (JPK 435 moddasi);

- taraflarga ularning huquq, majburiyatları va javobgarligini tushuntirish va ularni ta'minlash (JPK 436-moddasi);

- tomonlarga ularning protsessual majburiyatlarini bajarish va huquqlaridan foydalanish uchun kerakli sharoitlar yaratib berish;

- qonunda ko'zda tutilgan hollarda himoyachi va vakilning ishdagi ishtirokini ta'minlash;

- sud yuritividagi tilda so'zlay olmaydigan ishtirokchilarga o'z ona tilidan va bepul tarjimon xizmatidan foydalanishga bo'lgan huquqini tushuntirish va ta'minlash;

- jarayon ishtirokchilari tomonidan sudga taqdim etilgan har bir iltimosnomani ko'rib chiqish va o'z vaqtida hal etish (JPK 438- moddasi);

- sud qarori nusxalarini manfaatdor shaxslarga berish yoki yuborish va boshqalar.

Yuqoridagi protsessual harakatlarni amalgaga oshirib, sud ishdagi barcha ishtirokchilarga, birinchi navbatda, tomonlarga to'la hajmda o'z protsessual huquqlaridan foydalana olishini ta'milagan, tomonlar o'rtasidagi ochiq tortishuv uchun kerakli shart-sharoitni yaratgan, tomonlar tengligi tamoyilining buzilishini hamda sud protsessi ishtirokchilari protsessual huquqlarining cheklanishini oldini olgan va buning natijasida har kimning odil sudlovga (sud ishini odil olib borilishiga) bo'lgan huquqini ta'milagan boladi.

Huquq buzilishining oldini olish funksiyasi. Birinchi navbatda muhim ahamiyatga ega bo'lgan shaxsning aybdorligi va jazoni tayinlash masalasida jinoyat sodir etganlik uchun

belgilangan majburiyat asoslarini va miqdorini belgilab beruvchi ayblov hukmini huquq buzilishini oldini olishdagi o'rniqa ahamiyat berishimiz lozim.

Hukm odil sudlov yo'li bilan davlat tomonidan jinoyat huquqi o'rnatgan taqiqlarni buzganligi uchun shaxsga tayinlanadigan jinoyat jazosi ko'rinishidagi tahdid hisoblanadi.

Ushbu tahdidning jinoyat material huquq normalarida mavjud bo'lishi hamda uni sud hukmi bilan hayotga tatbiq etilishi jinoiy qilmishning oldini olishga, shaxsni jinoyat sodir etishga undovchi motivlarni tutib turishga va shu yo'l bilan shaxs va tashkilotlarning huquq va qonuniy manfaatlarini, jamiyat manfaatlarini himoya qilishga, huquqiy tartibni muhofaza qilishga hamda davlatda qonun ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan.

JPKning 298-moddasida qayd etib o'tilgan sudning xususiy ajrim chiqarish vakolati huquqbuzarlikni oldini olish funksiyasining eng muhim ko'rinishlaridan biri hisoblanadi.

Sud o'zining xususiy ajrimi yoki qarori bilan jinoyat sodir etilishiga turtki bo'lgan holatlarga, ya'ni fuqaro huquq va erkinliklari hamda boshqa qonun buzilishlari holatlari va faktlari qarshi kerakli choralar ko'riliishi lozimligiga tegishli tashkilot va mansabdor shaxsning e'tiborini qaratadi.

Bunday sud qarorlarining asosini sud ishini mazmunan hal qilish, buzilgan huquqlarni tiklash hamda huquqni ta'minlash emas, balki xuddi shu turdag'i jinoyatlarni va huquq buzilishlarini takroran sodir etilishini oldini olish tashkil etadi.

Natijalar

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 29-moddasi "Sudning vakolatlari" deb nomlanib, unda sudlar tomonidan amalga oshiriladigan bir qator muhim protsessual harakatlar va qarorlar sanab o'tilgan. Ushbu moddaning mazmuni jinoyat protsessining turli bosqichlarida sudning roli va funksiyalari kengayganligini aks ettiradi, xususan, sudgacha bo'lgan ish yurituvda ham sud nazoratining kuchaygani yaqqol namoyon bo'ladi. Biroq, 29-moddaning amaldagi tahririda sud vakolatlarining protsessual bosqichlar kesimida aniq va tizimli ravishda tasniflanmaganligi ilmiy-nazariy va amaliy nuqtai nazardan jiddiy muammo hisoblanadi. Moddadagi vakolatlarning ro'yxati aralash holda, ya'ni dastlabki tergov bosqichiga xos bo'lgan nazorat vakolatlari (masalan, qamoqqa olish, tintuv, telefon so'zlashuvlarini eshitib turish to'g'risidagi iltimosnomalarni ko'rib chiqish) bilan birinchi instansiya, apellyaesiya, kassaesiya va taftish instansiylariga tegishli bo'lgan ishlarni mazmunan ko'rib chiqish vakolatlari (jinoyat ishini sud muhokamasiga tayyorlash, dastlabki eshituv, ishni muhokama qilish va hukm chiqarish, hukmnii ijro ettirish) moddada bitta qismda bayon etilgan.

Xulosa

Yuqorida aytib o'tilgan fikrlar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, hozirgi zamonaviy jinoyat protsessida sudning asosiy funksiyasi ikki funksiyadan iborat bo'lib, ularga: sudga kelib tushgan muayyan jinoyat ishini ko'rib chiqib adolatli va qonuniy hal qilish; va hali sudga oshirilmagan lekin qo'zg'atilgan va dastlabki tergov olib borilayotgan jinoyat ishlari yuzasidan dastlabki tergov organlari xodimlarining qarorlari va harakatlarini nazorat qilish funksiyasi kiradi. Shuningdek, JPKning 29-moddasini vakolatlarni protsessual bosqichlar bo'yicha tizimli ravishda guruhlash orqali qism va bandlarga ajratgan holda qayta tahrir qilish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Ефимичев СП., Ефимичев П.С. Функции в уголовном судопроизводстве: понятие, сущность, значение // Журнал Российского права. - 2005. - №7. - С. 57-59
2. Гирько СИ. Уголовно-процессуальные функции милиции (теоретические, правовые и прикладные проблемы): Дисс... д-ра юрид. наук. 12.00.09. - М., 2004. - С. 26
3. Зинатуллин З.З. Уголовно-процессуальные функции: Монография. Ижевск: Изд-во Удм. Ун-та, 1994. - С. 10-14.
4. Васильева А.С. Соотношение судебного контроля и правосудия // Российский судья. - 2006. — №7. - С. 1
5. Мотовиловкер Я.О. Основные уголовно-процессуальные функции Ярославль. Типография Ярославского политехнического института. 1976 г. - С. 69.
6. Скитович В.В. Судебная власть как системное образование И Изв. вузов. Правоведение. - 1997. - № 1. - С. 150.
7. Колоколов Н.А. Судебный контроль в стадии предварительного расследования: реальность и перспективы // Государство и право. - 1998. - № 11. - С. 32.
8. Иноғомжонова З.Ф. Жиноят процессида суд назорати. Ўқув қўлланма.- Т.: ТДЮИ нашриёти.2007. Б.34.
9. Химичева О.В. Концептуальные основы процессуального контроля и надзора на досудебных стадиях уголовного судопроизводства. Монография.- М.: ЮНИТИ-ДАНА, Закон и право.2004. Б.210.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº S/6 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb
muammolari” elektron jurnali 2020-yil
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan
davlat ro’yxatiga olingan.**

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com
Bog’lanish uchun telefon:
(99) 602-09-84 (telegram).